

MARGARET ETVUD ASARLARIDA POSTGUMANIZM MASALASI**Kadirova Durdona Dilshadovna**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Lingvistika va Ingliz adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Margaret Atwood asarlarida postgumanizm masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining MaddAddam trilogy hamda The Handmaid's Tale romanlari asosida inson, texnologiya, ekologiya va gender o'rtasidagi murakkab bog'liqlik yoritiladi. Asarlarda insonning shaxs sifatida qadrsizlanishi va biologik resursga aylanish jarayoni ochib beriladi. Shuningdek, iste'molchilik jamiyati va ekologik inqiroz muammolari badiiy vositalar orqali talqin qilinadi. Muallif postgumanistik va ekofeministik g'oyalarni distopik tasvirlar orqali ifodalaydi. Natijada, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilishining xavfli oqibatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *postgumanizm, ekofeminizm, distopiya, Margaret Atwood, gender tengsizligi, ekologiya*

Аннотация

В статье анализируется проблема постгуманизма в произведениях Margaret Atwood. Особое внимание уделяется трилогии MaddAddam trilogy и роману The Handmaid's Tale. Рассматривается взаимосвязь человека, технологий, экологии и гендера. Показан процесс утраты человеческой идентичности и превращения человека в биологический ресурс. Анализируются проблемы потребительства и экологического кризиса. Автор раскрывает постгуманистические и экоефеминистские идеи через дистопическое изображение общества.

Ключевые слова: *постгуманизм, экоефеминизм, дистопия, Маргарет Этвуд, гендер, экология*

Annotation

This article analyzes posthumanism in the works of Margaret Atwood. It focuses on the MaddAddam trilogy and The Handmaid's Tale. The study explores the relationship between humans, technology, ecology, and gender. It highlights the loss of human identity and the transformation of individuals into biological resources. Issues of consumerism and ecological crisis are also examined. The author demonstrates how posthumanist and ecofeminist ideas are reflected in dystopian narratives.

Keywords: *posthumanism, ecofeminism, dystopia, Margaret Atwood, gender, ecology*

Kirish

Margaret Etvud zamonaviy Kanada adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan biri bo‘lib, asosan distopik kelajak, gender tengsizligi, ekologik va ijtimoiy masalalarni o‘z asarlarida chuqur o‘rganib kelmoqda. Odatda feminist yozuvchi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, Etvudning romanlarida postgumanizm g‘oyalari ham markaziy o‘rin tutadi. Postgumanizm atamasi birinchi bor Ayheb Hassan tomonidan 1977 yilda yaratilgan bo‘lib, insonni yagona sub'ekt sifatida ko‘rish o‘rniga, texnologiya, hayvonlar, ekologik tizimlar bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi, ya’ni inson buyum sifatida talqin qilinishiga asoslanadi. Birinchi postgumanistik asar esa Donna Harawayning “Kiborg manifesti” asari hisoblanadi.

Margaret Etvudning “MaddAddam” trilogiyasi distopik romanlardan tashkil topgan bo‘lib, yozuvchi ularda global muammolariga e’tiborini qaratadi. Jumladan, ilmfanning rivojlanishi natijasida, atrof-muhitga keltirilayotgan ziyonlar, insoniyatning insonga va hayvonlarga munosabati holati tasvirlanadi. Postgumanizm masalasi trilogiyaning 3 ta romanida ham uchraydi. Jumladan, “Oriks va Kreyk” da biz insoniyatning ilm-fanga mukkasidan ketishi natijasida, jamiyatga va insoniyatga umuman foyda keltirmaydigan kashfiyotlar qilishlari, hayvonlarni chatishtirish orqali ularning yangi turlarini yaratishlariga guvoh bo‘lamiz. Garchi insoniyat tirik mavjudotlar ustidan hukmronlik qilib, ularni o‘z tajribalari uchun qurbon qilsalar-da, asarda postgumanizmga xos bo‘lgan holatlarni ham ko‘rishimiz mumkin. “Oriks va Kreyk”ning markaziy qahramonlari Oriks, Kreyk va Jimmi obrazlarining bolalikdagi ota-onasi tomonidan bee’tibor qoldirilishi, bola sifatida erkalanmasligi kelajakda ularning shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rinini topa olmasligiga sabab bo‘ladi. Kreyk garchi yaxshi maktabda ta’lim olib, yetuk olim bo‘lib yetishsa-da, hayvonlarni chatishtirish orqali ularning yangi turlarini, keyinchalik esa insoniyatning boshqa bir shakli – Kreykerlarni yaratsa-da, hayoti ayanchli tarzda yakun topadi. Oriks esa farzandlarini pullash orqali kun kechiruvchi odamlar yashovchi qishloqdan bo‘lib, onasi tomonidan sotib yuborilgandan so‘ng, turli ishlarni qilishga majbur bo‘lgan, bolaligini ko‘cha-ko‘yda, har xil insonlar orasida va majburiy mehnat ostida o‘tkazgan obraz bo‘lib, asar yakunida u ham fojiali halok bo‘ladi. Jimmi obrazi garchi “Oriks va Kreyk” da yagona tirik qolgan inson bo‘lsa-da, bolaligida ota-onasi tomonidan qadrlanmagan Jimmi jamiyatda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lolmaydi. Trilogiyaning har bir romanida (Oriks va Kreyk, Toshqin yili, MaddAddam) diniy qadriyatlardan voz kechgan (postdiniy) va postgumanistik jamiyat tasvirlanadi – bu jamiyatda an’anaviy e’tiqodlar o‘z kuchini yo‘qotgan, inson e’tibori esa to‘liq moddiy manfaat, texnologik yutuqlar va biologik nazoratga qaratilgan.

Etvud bu jarayonni jamiyatdagi insoniy qadriyatlarning yemirilishi, shaxsiyatning toptalishi va insonning shunchaki iste’molchi hamda genetik resurs sifatida qaralishi orqali ochib beradi [Kuźnicki, 2017]. Ayniqsa, “Oriks va Kreyk” romanida Kreyk tomonidan yaratilgan sun’iy mavjudotlar – klon-odamlar (Kreyklar) inson istak va

ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus genetik konstruksiya asosida ishlab chiqariladi. Ular bozorda sotiladigan oddiy mahsulotga aylangan, bu esa insonning shaxsi va tanasining tijorat vositasiga aylantirilishini ifodalaydi [Atwood, 2003].

Etvudning *The Year of the Flood* (2009) romanida ham biz insonning iste'molchilik faoliyati va buning jirkanch oqibatlariga guvoh bo'lamiz. Jumladan, "SECRETBURGERS" nomi ostidagi yemakxonada har qanday hayvon go'shti ishlatilib, qaysi hayvon go'shtidan tayyorlanganligi sir tutiladi:

"The secret of SecretBurgers was that no one knew what sort of animal protein was actually in them <...> The meat grinders weren't 100 per cent efficient; you might find a swatch of cat fur in your burger or a fragment of mouse tail. Was there a human fingernail, once?" [Atwood, 2009, p. 22]

Ushbu parcha orqali bu yemakxonada inson go'shti ham ishlatilishi mumkinligi anglashiladi. MaddAddam trilogiyasini zamonaviy hayotning oynaviy tasviri sifatida talqin qilish mumkin, chunki undagi tanazzul sabablari bugungi real muammolar bilan bevosita bog'liq. Asarlarda haddan tashqari iste'mol, tabiiy resurslar tanqisligi va sun'iy oziq-ovqat modellarining yaratilishi insoniyatning ochko'zligi hamda atrof-muhitga zararli munosabatini fosh etadi [Atwood, 2013].

Ekologik mavzularni doimiy ilgari suruvchi Etvud o'z qahramonlariga ataylab hayvonlar nomini beradi: Kreyk – qush, Oriks esa – antilopa. Bu ismlar qahramonlarni shaxs sifatida ajratish bilan birga, global ekologik va axloqiy inqiroz belgilarini ham bildiradi. G'oyat zukko olim bo'lgan Kreyk insoniyatni yo'q qiladi va uning o'rniga yangi – "uyg'un va zararli bo'lmagan" – mavjudotlar turini, ya'ni "kreyklar"ni yaratadi. U bu orqali insonning vayronkor tabiati o'rniga muvozanatli jamiyat barpo qilishga urinadi. Biroq uning ismining yo'qolib borayotgan qush bilan bog'lanishi, bu rejaning bekorchi va halokatli ekani haqida yashirin ogohlantiruvdir. Etvud aynan shu obraz orqali shuni uqtiradi: ilm-fan niqobi ostida zo'ravonlik bilan "ideal" dunyo qurishga urinish – nafaqat tabiatning, balki insoniyatning ham yana bir yo'qolish shakliga olib keladi. Adabiyotshunos olim K. Stein Kreyk obrazini "M. Shelley'ning "Frankenstein" asaridagi bosh qahramonga o'xshash ilm-fandan noto'g'ri foydalanish timsoli" sifatida ta'riflaydi [Stein, 2010, p. 141].

"Toshqin yili" asaridagi Tobi, Zeb va Odam Ato obrazlari orqali ham oilada o'z o'rnini topa olmagan, qadrlanmagan insonlar tasviri davom ettiriladi. Trilogiyaning uchinchi romani "MaddAddam" da esa Kreyk tomonidan yaratilgan klon-odamlar jamiyatda insonning o'rnini egallashi, buning natijasida insoniyat o'zligini yo'qotishi kabi holatlar tasvirlanadi.

Margaret Etvudning "Oqsoch hikoyasi" romani insoniyat tanasi ustidan reproduktiv nazorat o'rnatilishiga asoslangan distopik asar bo'lib, postgumanizm masalasi unda markaziy o'rin tutadi. Jumladan, asar bosh qahramoni ayol bo'lib, yozuvchi u orqali insonning o'zligini yo'qotishi va buyumga tenglashtirilishi holatlarini tasvirlaydi. Romanda ayollar obrazlari qat'iy belgilangan ijtimoiy rollar, kiyim ranglari, kundalik

vazifalar va mafkuraviy cheklovlar asosida ajratilgan. Totalitar jamiyatda har bir ayol sinfi o'ziga xos tashqi ko'rinish orqali tanib olinadi.

“Oqsoch hikoyasi” romanida Margaret Etvud gender tengsizligining halokatli oqibatlarini yoritadi. Galad jamiyatidagi patriarxal va totalitar tuzum ayollarni faqat tug'ish uchun mavjud bo'lgan reproduktiv resurs sifatida ko'radi, ularning barcha boshqa huquqlarini inkor etadi. Bu jarayon nafaqat jismoniy, balki ruhiy halokatga olib keladi. Asarda ayol erkinligi masalasi tarixiy, ijtimoiy va diniy kontekstda yoritilib, yozuvchi ayolning jamiyatdagi o'rnini tahlil etishda tarixiy dalillardan mahorat bilan foydalanadi.

Asarning postgumanistik xususiyatlari shundan iboratki, ayol qahramon Offred obrazida insonning qadsizlanishi, buyumga tenglashtirilishi holati namoyon bo'ladi. U o'z asl ismini ham aytishga huquqsiz bo'lib, uni jamiyatda o'zi tegishli bo'lgan inson nomi bilan chaqirilishi (“Offred”- “of Fred”- “Fredniki”) uning shaxs sifatida mavjud emasligini anglatadi. Shuningdek, quyidagi metaforalar ayollarning insoniylikdan mahrum etilganini ko'rsatadi: “trained pig” [Atwood, 1985, p. 20], “caged rats” [Atwood, 1985, p. 84], “two-legged wombs” [Atwood, 1985, p. 127]

“There's no longer any hand lotion or face cream, not for us. Such things are considered vanities” [Atwood, 1985, p. 89]

(“Endi hech qanday yuz kremi yoki qo'l lasyoni, biz uchun emas. Ular be'manilik deb hisoblanadi”.) kabi jumlar asardagi ayol obrazlari o'z ismini ham aytishga huquqsiz bo'lgani kabi ularga pardoziy buyumlaridan, jumladan, oyna hamda taroqdan foydalanishning man etilganini ko'rishimiz mumkin. Ayollarni “oqsoch” sifatida ishlatish, ularning borlig'i faqat farzand tug'ish uchun kerak degan g'oyani ilgari surish orqali, ularni barcha boshqa huquqlardan mahrum qilish – bu faqat jismoniy emas, balki psixologik yemirilish holati sifatida tasvirlanadi. Bu orqali yozuvchi romanda postgumanizm masalasini yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, Margaret Etvudning “Oqsoch hikoyasi” romanining ekofeministik va postgumanistik muammolarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, asarda onalik, oila va shaxsiy erkinlik masalalari chuqur tanqidiy yoritilgan. Ayollar ustidan olib boriladigan nazorat – ularning ijtimoiy rollari, kiyimlari, ranglar orqali ajratilishi, diniy diskurs va harakat erkinligining cheklanishi – feministik distopiya janrining asosiy g'oyalari sifatida yoritilgan. Muallifning badiiy uslubi, intertekstual ishoralar va kuchli metaforalari orqali ayollar jamiyatda inson emas, balki faqat biologik resurs sifatida tasvirlanadi. Natijada, roman gender tengsizligining estetik va mafkuraviy ko'rinishini ta'riflaydi hamda ayollarni ekspluatatsiya qiluvchi nazorat ijtimoiy mexanizmlarini fosh etadi. “MaddAddam” trilogiyasida esa insoniyatning ochko'zligi masalasi yoritilib, bu kelajakda jamiyatning ayanchli halokatiga yetaklovchi sabablardan biri sifatida talqin qilinadi. Insonning shaxs sifatida kamol topmasligi va kelajakda jamiyatga foyda keltirmasligi, tabiat va tirik mavjudotlarga qilinayotgan zulm- barchasi insonni o'z shaxsiyatini yo'qotishiga olib keladi. Bu orqali Etvud inson o'z funksiyasini bajaruvchi

boshqa mexanizmlarni ixtiro qilish orqali o‘z rolini yo‘qolishiga sabab bo‘layotganiga urg‘u beradi. U insonni tabiatning bor ne‘matlaridan bahra olib, uning bor go‘zalligini qadrlagan holda u bilan hamjihatlikda yashashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atwood, M. (1985). *The Handmaid’s Tale*.
2. Atwood, M. (2003). *Oryx and Crake*.
3. Atwood, M. (2009). *The Year of the Flood*.
4. Atwood, M. (2013). *MaddAddam*.
5. Kuźnicki, S. (2017). *Margaret Atwood’s Dystopian Fiction*.
6. Stein, K. (2010). *Problematic Paradise in Oryx and Crake*.
7. Wolfe, C. (2010). *What is Posthumanism*